

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
SOLIQ QO‘MITASI HUZURIDAGI FISKAL INSTITUT**

**ATAQULOV USMAN MAXMADAMINOVICH**

**KO‘CHMAS MULK OBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Огловления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
Economical sciences**

**Ataqulov Usman Maxmadaminovich**

Ко‘chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish..... 3

**Атакулов Усман Махмадаминович**

Совершенствование налогообложения объектов недвижимости ..... 27

**Atakulov Usman Makhmadaminovich**

Improving taxation of real estate objects..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published orks..... 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
SOLIQ QO‘MITASI HUZURIDAGI FISKAL INSTITUT**

**ATAQULOV USMAN MAXMADAMINOVICH**

**KO‘CHMAS MULK OBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.1.PhD/Iqt1998 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal institutda bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Hotamov Komil Rabbimovich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kuziyeva Nargiza Ramazonovna**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich**

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "16" 01 soat 16<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (100066 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "3" 05 kuni tarqatildi.

(2024-yil "3" 05 da 3 raqamli reestr bayonnomasi).



**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, i.f.d., professor

**S.K. Xudoykulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon iqtisodiyotida moliyaviy beqarorlik holatlarining namoyon bo'lishi davlat budjeti daromad manbalarining barqarorligini mustahkamlash amaliyotini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Jumladan, ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish va uning mahalliy budjetdagi o'rnini va ahamiyati ortib bormoqda. "Dunyo mamlakatlarida ko'chmas mulk solig'i jami budjet daromadlarining 10 foizgacha bo'lgan qismini tashkil qiladi. Xususan, Shvetsiyada 1 foiz, AQSHda 9 foiz, Buyuk Britaniyada 10 foiz. Ushbu soliqning mahalliy budjetdagi tutgan o'rnini Fransiyada 20 foizni, Buyuk Britaniyada 30 foizni, Kanadada 40 foizni tashkil qiladi"<sup>1</sup>. Rivojlangan davlatlarda ko'chmas mulk obyektlarining budjet daromadlarini to'ldirishdagi ahamiyati ortib borishi bilan ularni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Hozirgi globallashtirish sharoitida rivojlangan davlatlarda ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish tadqiqiga alohida e'tibor berilmoqda. Jahon iqtisodiyoti yangi bosqichga ko'tarilib, raqamli iqtisodiyot ko'lami kengayib borayotgan hozirgi vaqtda qulay soliq muhitini yaratish, soliq yukini optimallashtirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, samarali soliq-budjet siyosatini tashkil etish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash va soliq solinadigan ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish bu boradagi ilmiy-tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda yer uchastkalari va mol-mulkni soliqqa tortishni yanada takomillashtirish, ularni baholash va hisobini yuritishda zamonaviy usullarni joriy qilish, yer resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqilligini yanada oshirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatda ko'chmas mulk obyektlarini to'liq va o'z vaqtida soliqqa tortilishini ta'minlash, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan obyektlarni soliqqa tortish mexanizmidagi muammolarni bartaraf etish, shu bilan birga soliqqa tortish tartibini soddalashtirish, ko'chmas mulk mulkdorining ixtiyorida qoladigan soliqqa tortish borasida qo'llaniladigan imtiyozning adolatlilik tamoyiliga mosligini, amaldagi mol-mulk va yer soliqlarini birlashtirib yagona ko'chmas mulk solig'ini joriy etish orqali O'zbekistonda ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda mol-mulk solig'i bazasini hisoblashda binolar va inshootlarning joylashgan o'rnidan kelib chiqqan holda har bir kvadrat metri uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatlarini o'rnatish, korxonalar ko'chmas mulk obyektlarining qoldiq qiymati 1 kv. metr uchun belgilangan eng kam qiymatdan past bo'lgan taqdirda soliq bazasini aniqlash tartibini ishlab chiqish, soliq to'lovchilar

---

<sup>1</sup> Воронин С., Корабоев Б., Ниязметов И., Угай Д. Международный опыт налогообложения недвижимости// Общество и экономика. -2021. – Выпуск 2. С.119-130.

uchun ko'chmas mulk obyektlari uchun belgilangan eng kam qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishi darajasidan kelib chiqqan holda kamaytiruvchi koeffitsiyent qo'llash, yuridik shaxslarning yer solig'i hisobotlarini avtomatik hisoblab chiqarish tizimini joriy qilish masalalarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 7-sentyabrdagi PF-6061-son "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 3-dekabrda PF-6121-son "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida", 2021-yil 8-sentyabrdagi PF-6307-son "Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 15-apreldagi PQ-208-son "Budjetlararo munosabatlarni va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Soliqlarning nazariy va huquqiy asoslarini va ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish bo'yicha bir qancha xorijiy olimlar va tadqiqotchilar jumladan, A.Smit, D.Rikardo, J.Malme, J.Youngman, Yu.Shmelov, R.Marsulis, J.Golodova, Yu.Golodova, I.Drojina, L.Lukova, L.Grigoreva, S.Griboskiy, O.Batura, S.Shavrov, Yu.Kosenkova, Ye.Dyukova, D.Basangova, O.Yermochenko, A.Lapshina, T.Loginova, S.Bogachev, M.Solovyev, Ye.Ivanova, M.Fedotovoy, E.Utkin, D.Fridman, M.Berezin, P.Animitsa, B.Aliyev va M.Musayevalarning asarlarida o'z aksini topgan<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup> Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. The Electronic Edition (2000) The Library of Economics and Liberty. URL: <https://www.econlib.org/library/Smith/smWN.html>; Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Сочинения. Т.1./Пер. под ред. М.Н.Смит-М.: Государственное издательство политической литературы, 1955. С.193; Malme Jane H. and. Youngman Joan M. eds., The Development of the Property Tax in Economies in Transition, WBI Learning Resources Series (Washington: World Bank, 2001); Шмелов Ю.Д., Маргулис Р.Л. О новой концепции налога на недвижимость физических лиц и механизме ее реализации // Финансы. 2012. №1.; Голодова Ж.Г., Голодова Ю.С. Трансформация налога на имущество физических лиц в России: предпосылки и направления. Финансы. 2010. №3; Дрожжина И.А. Формирование систем; Лукова Л.Н., Букина И.С. (2017) Налоговые системы зарубежных стран: учебник для бакалавриата и магистратуры. Юрайт. с. 428.; Григорьева Л.Г. (2017) Налогообложение объектов недвижимости в России и за рубежом // М.: «Российская газета». №. 11, – с. 80.; Грибовский С.В., Лейфер Л.А., Нейман Е.И. (2010) О концепции оценки недвижимости для целей налогообложения // Имущественные отношения в Российской Федерации. №. 5.; Батура О.В., Шавров С.А., Косенкова Ю.Ю. (2014) Зарубежный опыт налогообложения недвижимости // Экономика и экономические науки. №. 4.; Батура О.В., Шавров С.А., Косенкова Ю.Ю. (2014) Зарубежный опыт налогообложения недвижимости // Экономика и экономические науки. №. 4.; Dyakova E.B., Basangova D.V., Ermochenko O.N., & et al. (2013) The introduction of real estate tax: problems and prospects. Volgograd: Volgograd State University Publ. 135 p.; Лапшина А.С. (2018)

Shuningdek, mahalliy iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilardan A.Vaxobov, A.Jo‘rayev, I.Niyazmetov, M.To‘ychiyev, A.Mirxoshimov, U.Pardev, G‘.Safarov, S.Boymurodov, Sh.Musalimov, A.Nazarov, F.Fayziyev, U.To‘lakovlarning ilmiy izlanishlari natijasida soliqlarni xususan, ko‘chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish bo‘yicha nazariy va ilmiy jihatdan fikr va mulohazalar yuritilgan<sup>3</sup>.

Jumladan, mahalliy olimlardan A.Nazarov va U.To‘lakov ko‘chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishning muammolari bilan bog‘liq kengroq tadqiqotlar olib borgan bo‘lsa, A.Vaxobov, A.Jo‘rayev, I.Niyazmetov, M.To‘ychiyev, A.Mirxoshimov, U.Pardev, G‘.Safarov, S.Boymurodov, Sh.Musalimov, F.Fayziyev mol-mulk solig‘i bo‘yicha mahalliy budjet daromadlari bazasini kengaytirish yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borib, ko‘chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish bo‘yicha qisman tahlil qilgan.

A.Nazarov o‘zining “Ko‘chmas mulk obyektlarining buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishni takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiya ishida ko‘chmas mulk obyektlarining buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish mexanizmini

---

Совершенствование налогообложения имущества физических лиц на основе государственной кадастровый оценки объектов жилой недвижимости. Ростов-на-Дону, с. 169.; Логинова Т.А. (2017) Концептуальные подходы к налогообложению недвижимого имущества и их реализация в налоговых системах стран ОЭСР и Российской Федерации, *Налоги и налогообложение*, № 9, – сс. 1–14.; Богачев С.В. (2017) Налог на недвижимость: опыт зарубежных стран // *Налоги и сборы*, № 1 – сс. 45–50.; Соловьев М.М. (2002) *Оценочная деятельность*. – М.: ЮНИТИ-ДАНА. С. 102. (Soloviev M.M. *Appraisal activity*. - M.: UNITY-DANA, 2002. – P. 102.); Иванова Е.Н. (2008) *Оценка стоимости недвижимости*. Учебное пособие. под ред. д-ра экон. наук, проф. М.А. Федотовой. –2 изд. – М.:КНОРУС 344 с. (Ivanova E.N. *Real estate appraisal. Tutorial. Under the editorship of M.A. Fedotova*. –2 edition - M.: KNORUS, 2008.–344 p.); Федотова М.А., Уткин Э.А. (2004) *Оценка недвижимости и бизнеса*. -М.:ЭКМОС. С. 92. (Fedotova M.A., Utkin E.A. *Valuation of real estate and business*. -M.: EK MOS, 2004. – P. 92.); Фридман Д. (2005) *Анализ и оценка приносящей доход недвижимости*. - М.: Дело. С. 86. (Friedman D. *Analysis and evaluation of income-generating real estate*. - M.: Delo, 2005. – P. 86.); Березин М.Ю. (2011) *Новый налог на недвижимость в российской налоговой системе* // *Финансы*. № 4. (Berezin M. Yu. *New real estate tax in the Russian tax system* // *Finance*. 2011.№ 4.); Анимца П.Е. (2015) *Налогообложение недвижимости: зарубежный опыт и российские перспективы* // *Международный бухгалтерский учет*. № 47. (Animica P.E. *Real estate taxation: foreign experience and Russian prospects* // *International Accounting*. 2015. № 47.); Алиев Б.Х., Мусаева Х.М. (2012) *Развитие налогового федерализма в условиях российских реформ* // *Налоги и финансовое право*. № 3. (Aliev B. Kh., Musaeva Kh. M. *Development of tax federalism in the context of Russian reforms* // *Taxes and Financial Law*. 2012. № 3.).

<sup>3</sup> Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo‘rayev. – T.: “Sharq” nashriyoti – 2009.; I.M.Niyazmetov Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta‘minlash.Iqtisodiyot fanlari doktori(DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya., Niyazmetov I.M (2018) Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta‘minlash. Iqt. fan. dok. diss. avtoref. – Toshkent. – 72 b.; To‘ychiyev N.J., Mirxoshimov A.M., Plaxtiy K.A. (2000) *Ko‘chmas mulkni baholash asoslari. O‘quv qo‘llanma*. - Toshkent: Adolat. 280 b. (Tuychiev N.J., Mirxoshimov A.M., Plakhti K.A. *Fundamentals of real estate appraisal. Educational aid*. – Tashkent: Adolat, 2000, - 280 p.); Pardayev U. (2018) *Davlat budjetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirish. Falsafa doktori (Phd). ... diss.avtoref*. – Toshkent. 25-26 b., G‘.A.Safarov. *Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishini soliqlar vositasida rag‘batlantirish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati*. T.Akademiya. 2006-y. 26 b.; Boymurodov S. (2021) *Mahalliy budjetlar daromadlarini barqarorlashtirishda yer va mol-mulk soliqlaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari Falsafa doktori (Phd). diss.-Toshkent. 32-b.*; Musalimov Sh. (2020) *Mol-mulk solig‘ini hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish Falsafa doktori (Phd). diss.-Toshkent. 32-35-b.*; Nazarov A. (2021) *Ko‘chmas mulk obyektlarining buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishni takomillashtirish Falsafa doktori (Phd). diss.-Toshkent. 25-32-b.*; Fayziyev F. (2021) *Mahalliy budjet daromadlari bazasini kengaytirishda biriktirilgan soliqlar rolini oshirish masalalari Falsafa doktori (Phd). diss.-Toshkent. 22-38-b.*; Tulakov U. (2022) *Ko‘chmas mulkni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish Falsafa doktori (Phd). diss.-Toshkent. 20-27-b.*

takomillashtirish bo'yicha to'liq amortizatsiya qilingan va foydalanishda qoldirilgan asosiy vositalarni soliqqa tortish maqsadida amortizatsiya xarajatlari bo'yicha vaqtinchalik farqlarni schyotlarda hisobga olish taklifi "O'ztransgaz" AJ va unga qarashli korxonalarining 2021-yil hisob siyosati bilan tasdiqlangan ishchi schyotlar rejasiga kiritilgan. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi amortizatsiya bo'yicha vaqtinchalik farqlarni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish, foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortish bazasining aniqligi hamda bu soliqni hisoblashda soliq va buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini bir-biriga mos kelishi ta'minlangan.

U.To'lakov o'zining "Ko'chmas mulkni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiya ishida ko'chmas mulkka iqtisodiy kategoriya sifatida yangilangan mualliflik ta'rifi, hamda soliq solishning adolatlilik tamoyilini ta'minlash maqsadida qimmatbaho (hashamatli) ko'chmas mulk egalariга soliq yukini qayta taqsimlash zarurati asoslangan.

Jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida mamlakatda ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarga qaramasdan, mazkur yo'nalish bo'yicha tadqiqotlarni takomillashtirib borish bugungi kunning dolzarbligini belgilaydi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarida doirasida "Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligi va xalqaro soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ko'chmas mulk obyekti bo'lgan binolar va inshootlarning qiymatini bozor bahosiga yaqinlashtirish maqsadida soliq bazasini hisoblashda har bir kvadrat metri uchun eng kam qiymat kiritilishi bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ko'chmas mulk obyektining har bir kvadrat metr bo'yicha qiymati, belgilangan eng kam qiymatdan past bo'lsa, soliq to'lovchi ko'chmas mulk obyektlari qiymatini mustaqil baholashni amalga oshirishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

soliq to'lovchi tomonidan ko'chmas mulk obyektlarni o'tgan ikki yilda o'tkazilgan mustaqil baholash natijalarini soliq bazasi sifatida hisobga olish tizimini yaratish;

soliq to'lovchilar uchun ko'chmas mulk obyektlari uchun belgilangan eng kam qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi koeffitsiyent qo'llash bo'yicha yengilliklar yaratish;

soliq to'lovchilarga ko'chmas mulk obyektlari uchun soliq hisoboti shakllarini soddalashtirish va avtomatlashtirishni amaliyotga joriy qilish;

ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishning ma'murchiligini yanada takomillashtirish shuningdek, tadbirkorlarning muammo va takliflarini bevosita

o'rganish yuridik shaxslarning soliq hisobotlarini Kadastr agentligi organlari ma'lumotlari asosida avtomatik hisoblab chiqarish tizimini ishlab chiqish;

ko'chmas mulk obyektlarining haqiqiy hisobini bilish hamda kadastr va soliq idoralarning resurslarini birlashtirish, ularning axborot tizimlarini integratsiya qilish hisobiga axborot bazasini kengaytirish;

ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va ulardan mamlakatimizda foydalanish istiqbollari tahlil qilish;

O'zbekistonda jismoniy va yuridik shaxslarning ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishda soliq ma'murchiligi va mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ko'chmas mulk obyektlariga soliq solish faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmetini** ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borish jarayonida taqqoslash, guruhlash, tizimli yondashish, kuzatish, statistika va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mol-mulk solig'i bazasini hisoblashda binolar va inshootlarning respublika poytaxt shaharlari, viloyat markazlari hamda boshqa shahar yoki qishloq joylarda joylashganligidan kelib chiqqan holda har bir kvadrat metri uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatlarini o'rnatish orqali ko'chmas mulk obyektlari bahosini bozor qiymatiga yaqinlashtirish va soliq tushumini oshirish taklifi asoslangan;

korxonalar ko'chmas mulk obyektlarining qoldiq qiymati 1 kv. metr uchun belgilangan eng kam qiymatdan past bo'lgan taqdirda korxonalar ko'chmas mulkni qayta baholashni amalga oshirishi hamda korxonalar tomonidan o'tgan ikki yilda o'tkazilgan mustaqil baholash natijalarini soliq bazasi sifatida e'tirof etilishi taklif qilingan;

solliq to'lovchilar uchun ko'chmas mulk obyektlari uchun belgilangan eng kam qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishi darajasidan kelib chiqqan holda kamaytiruvchi koeffitsiyent qo'llash lozimligi asoslangan;

yuridik shaxslarning yer solig'i hisobotlarini Kadastr agentligi ma'lumotlari asosida avtomatik hisoblab chiqarish tizimini joriy qilish orqali ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishning ma'murchiligini takomillashtirish taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ko'chmas mulk obyekti bo'lgan bino va inshootlarga nisbatan soliq bazasi 1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatdan past bo'lishi mumkin emasligi asoslangan;

yuridik shaxslarning ko'chmas mulk obyektlariga solinadigan solliq bo'yicha solliq hisoboti shakllari hamda bo'nak to'lovlarni hisoblash ma'lumotnomasi shakllari ilmiy yangiliklar asosida amaliyotga joriy etilgan;

ko'chmas mulk obyekti hisoblangan qishloq xo'jaligi yerlarining hisobini yuritish, monitoring qilish hamda muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirishga doir vazifalari, funksiyalari hamda vakolatlarini Qishloq xo'jaligi vazirligiga o'tkazish bo'yicha taklifi asoslangan;

ko'chmas mulk obyektlariga soliq hisoblashni tashqi manba ma'lumotlari asosida soliq organlari tomonidan hisoblashni yo'lga qo'yish orqali tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish taklifi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarni rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Kadastr agentligi ma'lumotlari, soliq qonunchiligini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar, mamlakat va xorijiy olimlarning ekspert baholari va ishlanmalaridan foydalanilganligi hamda xulosa va takliflarning soliq idoralari tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish borasida yuzaga keladigan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish jarayonida hamda mazkur yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan Soliq idoralari tomonidan ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

mol-mulk solig'i bazasini hisoblashda binolar va inshootlarning respublika poytaxt shaharlari, viloyat markazlari hamda boshqa shahar yoki qishloq joylarda joylashganligidan kelib chiqqan holda har bir kvadrat metri uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatlarini o'rnatish orqali ko'chmas mulk obyektlari bahosini bozor qiymatiga yaqinlashtirish va soliq tushumini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2022-yil 28-dekabrda 19/10-169835-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ko'chmas mulk obyektlariga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga hisoblangan mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solishning adolatlilik prinsipi ta'minlanib, mahalliy budjetga 2022-yilda mol-mulk solig'iga 3 154,2 mlrd.so'm (o'tgan yilga nisbatan 1 467,1 mlrd.so'mga yoki 1,8 barobarga oshgan) hisoblanishiga erishilib, belgilangan prognoz ko'rsatkichlari joriy yilning 1-yanvar holatiga 141,9 foizga bajarilishiga erishilgan;

korxonalar ko'chmas mulk obyektlarining qoldiq qiymati 1 kv. metr uchun belgilangan eng kam qiymatdan past bo'lgan taqdirda korxonalar ko'chmas mulkni qayta baholashni amalga oshirishi hamda korxonalar tomonidan o'tgan ikki yilda

o‘tkazilgan mustaqil baholash natijalarini soliq bazasi sifatida e’tirof etilishi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2022-yil 28-dekabrda 19/10-169835-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida uzoq yillardan buyon bino va inshootlarini baholatmagan 4,9 mingta soliq to‘lovchilar 7,1 mingta ko‘chmas mulk obyektlarini mustaqil baholatib, soliq ma’muriyatchiligining takomillashishiga erishilgan;

soliq to‘lovchilar uchun ko‘chmas mulk obyektlari uchun belgilangan eng kam qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishi darajasidan kelib chiqqan holda kamaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llash taklifi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasiga tegishli o‘zgartirish kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2022-yil 28-dekabrda 19/10-169835-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 26 095 ta korxonadan kamaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llanilgandan so‘ng hisoblangan soliq summasi 1305,6 mlrd.so‘mdan 965,0 mlrd.so‘mga kamayganligi hisobiga soliq to‘lovchilar ixtiyorida 340,6 mlrd.so‘m mablag‘ qolishiga imkon yaratilgan;

yuridik shaxslarning yer solig‘i hisobotlarini Kadastr agentligi organlari ma’lumotlari asosida avtomatik hisoblab chiqarish tizimini joriy qilish orqali ko‘chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishning ma’urchiligini takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-sentyabrda “Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6307-son Farmonida aks ettirilib, amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2022-yil 28-dekabrda 19/10-169835-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Kadastr agentligi ma’lumotlari jamlanganligi orqali (kadastr raqami, yer maydoni, toifasi, soliq stavkasi, huquq yangidan paydo bo‘lgan yoki bekor qilingan sana, imtiyozli hudud) Xorazm viloyatida barcha 4 496 ta noqishloq yer solig‘i to‘lovchilari hisobotlarini ham to‘liq avtomatlashtirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 143 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy-tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida ko‘chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishning nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan **birinchi bobida** ko‘chmas mulk obyektlarining huquqiy holati o‘rganilgan bo‘lib, ko‘chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish bilan bog‘liq munosabatlar, ko‘chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishning ilmiy-nazariy asoslari shuningdek, bugungi kunda amalda bo‘lgan mol-mulk va yer soliqlarining budjet daromadlarini shakllantirishdagi o‘rni yoritib o‘tilgan. Shuningdek, ushbu bob materiallarini tayyorlashda ko‘chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish borasidagi xorijiy mamlakatlar tajribalari tadqiq qilinib, tadqiqotda belgilangan vazifalar doirasida nazariy xulosalar shakllantirilgan.

Dissertatsiya ishi davomida ko‘chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishda ko‘chmas mulk solig‘ini joriy qilish va soliq stavkalarini bixillashtirish hamda budjet tushumlari barqarorligini ta‘minlash jarayonini yoritib berish tanlab olingan va bu mavzuyimizning dolzarbligini belgilab beradi.


Bizning fikrimizcha bugungi kunda barcha davlatlarda ko‘chmas mulk obyektlarini sotib olish insonlar orasida mashhur sarmoya hisoblanadi. Biroq, hamma ham sotib olingan ko‘chmas mulk obyektiga soliq yukini hisobga olmaydi.

Qariyb barcha mamlakatlarda ko‘chmas mulk obyektlari umumiy soliq tizimining asosiy elementlari sifatida qaraladi. Ko‘plab davlatlarda mahalliy byudjetlarning asosiy daromad manbai ko‘chmas mulk obyektlaridan tushadigan soliqlar hisoblanib, mahalliy budjetni to‘ldirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xorijiy amaliyotni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ko‘chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish tizimi ko‘pchilik mamlakatlarda uzoq vaqtdan buyon muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda va mahalliy budjetning mustaqilligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Ko‘chmas mulk iqtisodiy munosabatlar va soliqqa tortish obykti sifatida nafaqat uni sotish yoki ayirboshlashdan daromad olish uchun, balki bevosita egalik qilish yoki foydalanishdan daromad manbai sifatida ham foydalanish mumkin. Agar ko‘chmas mulk tovar sifatida foydalanilsa, u holda uni sotishdan olingan natijalar foyda yoki daromad solig‘iga tortiladi.

Bunday sharoitda soliq siyosatining mohiyati ko‘chmas mulk obyektlaridan unumli foydalanishni rag‘batlantirish va to‘liq foydalanmaslikni oldini olishdan iborat. Quyida berilgan rasmda ko‘chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishdan maqsad atroflicha ifoda etilgan.




### 1-rasm. Ko'chmas mulk obyektlariga soliq solishdan maqsad<sup>4</sup>

1-rasmda ko'chmas mulk obyektlariga soliq solishning turli maqsadlari izohlab berilgan bo'lib, bunda soliq siyosati ko'chmas mulk obyektlaridan unumli foydalanishni rag'batlantirish, kam foydalanishga yo'l qo'ymaslik, barqaror rivojlanishni rag'batlantirish orqali soliqqa tortishda muhim rol o'ynaydi.

Fikrimizcha, ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishda ko'chmas mulk toifasiga aniqlik kiritish, soliq solish tizimini soddalashtirish, ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishda zamonaviy usullarni amaliyotga joriy qilish va ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ko'chmas mulk tushunchasi va bunday mulklar toifasiga nimalar kirishi haqidagi savol bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Quyida berilgan rasmda ko'chmas mulk obyektlari tarkibi ifoda etilgan.



### 2-rasm. Ko'chmas mulk obyektlari tarkibi<sup>5</sup>

2-rasmda ko'chmas mulk obyektlari tarkibi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan tuzilgan. Mazkur ko'chmas mulk obyektlarini bir nechta fikrlar orqali dissertatsiya ishimizda izohlashga harakat qilganmiz. Bugungi kunda amaliyotda ko'chmas mulk obyektiga qaysi obyektlar kirishi borasida tortishuvli munozaralar mavjud. Masalan, yer bilan uzviy bog'liq bo'lgan

<sup>4</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


<sup>5</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

telekommunikatsiya antennalari, yer osti qazilma boyliklarini qayta ishlovchi trubalar va inshootlarga ega bo'lgan korxonalar mazkur obyektlarni ko'chmas mulk sifatida tan olmaydilar. Ularning fikricha, ushbu inshootlarni bir joydan boshqa joyga ko'chirish mumkin.

Shu sababli, ko'chmas mulkka o'zimizning ta'rifimizni keltirib o'tamiz, ya'ni "ko'chmas mulk jumlasiga yer uchastkalari, yer osti boyliklari, binolar, inshootlar, ko'p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog'langan boshqa mol-mulk, ya'ni joylarini o'zgartirishdan qat'iy nazar belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan obyektlar" kirishini belgilash orqali tortishuvli munozaralarga barham beriladi. Bundan tashqari, ko'chmas mulkka qonun hujjatlarida tegishli ta'riflar mavjudligi hamda iqtisodchi olim va ilmiy izlanuvchilarning fikr-mulohazalaridan kelib chiqib, mazkur sohani yanada takomillashtirish maqsadida tadqiqotlar olib borish, mavjud muammolarni aniqlash, bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida "**Ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish mexanizmi tahlili**" tadqiq qilinishi belgilab olingan bo'lib, asosiy e'tibor O'zbekistonda jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblab chiqarish va to'lash tartibining amaldagi holati shuningdek, ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishda yuzaga kelayotgan muammolar hamda istiqboldagi rejalar tahlil qilingan.

Barchamizga sir emaski, bugungi kunda jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlarini hisoblab chiqarish va to'lash tartiblari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan mustahkamlab qo'yilgan. Ma'lumot o'rnida aytadigan bo'lsak, mol-mulk va yer solig'i to'lovchilari bo'lgan jismoniy shaxslarning yillar kesimida o'zgarish tahlilini ko'rib chiqamiz (3-rasm).



**3-rasm. Respublika bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig'i to'lovchilari soni to'g'risida ma'lumot<sup>6</sup>**

<sup>6</sup> Soliq qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Rasm ma'lumotidan ko'rinib turibdiki, 2017-2022-yillar oralig'ida soliq to'lovchilar soni ortib borgan. Mol-mulk solig'i bo'yicha 2017-yilda 5 257 312 ta, 2018-yilda 5 465 244 ta yoki bir yil oldinga nisbatan 207 932 taga, 2019-yilda 6 621 139 ta yoki 1 155 895 taga, 2020-yilda 6 818 547 ta yoki 197 408 taga, 2021-yilda 6 882 411 ta yoki 63 864 taga, 2022-yilda 7 153 253 ta soliq to'lovchi mavjud bo'lgan yoki 270 842 taga oshgan.

Yer solig'i bo'yicha 2017-yilda 5 103 796 ta, 2018-yilda 5 620 430 ta yoki bir yil oldinga nisbatan 516 634 taga, 2019-yilda 5 762 445 ta yoki 142 015 taga, 2020-yilda 5 995 896 ta yoki 233 451 taga, 2021-yilda 6 100 781 ta yoki 104 885 taga, 2022-yilda 6 423 773 ta soliq to'lovchi mavjud bo'lgan yoki 322 992 taga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

### 1-jadval

#### Respublika bo'yicha 2018-2022-yillarda mol-mulk va yer solig'i to'lovchi yuridik shaxslar soni to'g'risida ma'lumot<sup>7</sup>

Soliq turlari	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
	soliq to'lovchilar soni				
Mol-mulk solig'i	5 162	67 581	58 856	69 353	77 123
Yer solig'i	165 566	172 368	156 411	170 539	173 497
Noqishloq xo'jaligi yer solig'i	11 241	77 557	62 864	70 816	70 882
Qishloq xo'jaligi yer solig'i (Yagona yer solig'i)	154 325	94 811	93 547	99 723	102 615

1-jadval ma'lumotidan yuridik shaxslarning mol-mulk va yer solig'i to'lovchilari soni 2021-yildan boshlab ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, 2019-yil 1-yanvardan boshlab barcha tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan yillik tushumi 1 milliard so'mgacha bo'lgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, yer solig'i joriy etildi. Jadval ma'lumotida 2018-yilda mol-mulk solig'i to'lovchilar soni 5 162 tani va noqishloq qishloq xo'jaligi yer solig'i to'lovchilari soni 11 241 tani tashkil qilgan. 2019-yildan mol-mulk va yer solig'i obyekt bo'lmagan soliq to'lovchilar ham soliq hisobotlarini tushunmovchilik sababli taqdim etishi natijasida soliq to'lovchilarning soni sun'iy ravishda oshib ketgan. Soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarga targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishi natijasida 2020-yilda soliq obyekt mavjud bo'lgan tadbirkorlik subyektlari soliq hisobotlarini taqdim etishlariga erishildi. Shu sababli, soliq to'lovchilar soni 2019-yildagiga nisbatan 2020-yilda soliq obyektlariga ega bo'lgan soliq to'lovchilar tomonidan soliq hisobotlarini taqdim etishi hisobiga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. 2021 va 2022-yillarda Kadastr agentligi va Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan integratsiya jarayonlari takomillashganligi hisobiga soliq to'lovchilar soni ortib bormoqda. Soliq obyektlari ortishi bilan o'z

<sup>7</sup> Soliq qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

navbatida soliq tushumlariga ham ijobiy ta'sir qilmoqda. Quyida soliq tushumlarining yillar kesimida tahlilini ko'rib chiqamiz.

## 2-jadval

### Respublika bo'yicha yuridik shaxslarning 2018-2022-yillarda mol-mulk va yer solig'i tushumi to'g'risida ma'lumot<sup>8</sup>.

Soliq turlari nomi	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
	soliq tushumi (mlrd.so'm)				
Mol-mulk solig'i	1 897,8	1 553,7	1 240,8	1 576,1	3 040,6
Yer solig'i	841,0	1 407,8	1 306,9	2 934,1	3 422,0
Noqishloq xo'jaligi yer solig'i	624,8	1 134,7	1 156,1	2 507,3	2 999,5
Qishloq xo'jaligi yer solig'i (Yagona yer solig'i)	216,2	273,1	150,8	426,8	422,5

2-jadval ma'lumotidan yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i va yer solig'i tushumlarini yillar kesimida tahlil qilganimizda 2019-yilda mol-mulk solig'i stavkasi qariyb 2 baravarga pasaytirildi. 2020-yilda esa pandemiya munosabati bilan yuridik shaxslarga mol-mulk va yer soliqlaridan imtiyoz berilgan. 2021-2022-yillarda mol-mulk va yer soliqlari tushumi oshib borgan. 2022-yilda mol-mulk solig'iga minimal qiymat kiritilishi bilan soliq tushumi qariyb 2 baravar oshganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa soliq ma'murchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar, soliq obyektlari bo'yicha minimal qiymatning o'rnatilishi, hisobga olinmagan soliq to'lovchilarning hisobga olinishi, Soliq qo'mitasi tomonidan olib borilgan tahlillar natijasida yuzaga keldi.

Albatta, soliq tushumlarining oshishining sabablari sifatida Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining qabul qilinishi va soliq qonunchiligiga asosan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar bo'yicha yer solig'i stavkalari qishloq xo'jaligi ekinzorlarining me'yoriy qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda, meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalar uchun meva-sabzavotchilik mahsulotlari egallagan yerlar uchun esa qat'iy stavkada va yer maydonining bonitet balidan kelib chiqib hisoblanganligi hamda yillik pul aylanmasi 1 milliard so'mgacha hamda sug'oriladigan yer maydoni 50 gektargacha bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi korxonalar aylanmadan olinadigan soliq va boshqa soliqlarni to'lash tartibi belgilanganligini ham muhim omillar sifatida keltirish o'rinlidir.

Avval ta'kidlaganimizdek, ko'chmas mulk obyekti bo'lgan bino va inshootlarning bahosi bozor qiymatidan ancha past bo'lganligi, mol-mulk solig'i tushumida sezilarli ta'sir qildi. Shu sababli, bino va inshootlarning bahosini bozor bahosiga yaqinlashtirish maqsadida ko'chmas mulk obyekti bo'lgan binolar va inshootlarga nisbatan soliq bazasini hisoblashda 1 kv. metr uchun eng kam qiymat qonunchilikka kiritilishi natijasida mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solishning adolatlilik prinsipi ta'minlanib, mahalliy budjetga 2022-yilda 3 154,2 mlrd.so'm

<sup>8</sup> Soliq qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

hisoblanishiga erishildi. Natijada, belgilangan prognoz ko‘rsatkichlari joriy yilning 1-yanvar holatiga 141,9 foizga bajarildi. Amaldagi qonunchilik normalariga ko‘ra, yuridik shaxslar tomonidan mol-mulk solig‘i hisoboti soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi soliq organiga yilda bir marta, soliq hisoboti davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Fikrimizcha, yuridik shaxslar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladigan soliq hisoboti ahamiyatsizday. Sababi, amaliyotda korxonalar tomonidan mol-mulk ma’lumotnomasini yil boshida taqdim etgandan so‘ng chorak va oy davomida to‘lovlarni amalga oshiradi. Yil oxiriga borib korxonalar barcha to‘lovlarni amalga oshirgandan so‘ng, go‘yoki soliq majburiyatini to‘liq tugatgandek bo‘ladi va natijada soliq hisobotlari taqdim etilmasdan qolmoqda (3-jadval).

**3-jadval**

**Mol-mulk solig‘i hisobotini taqdim etmagan yuridik shaxslar bo‘yicha ma’lumot<sup>9</sup>**

Yillar	Hisobot davrida					kamayishga
	korxonalar soni	taqdim etgan	taqdim etilmagan		qo‘shimcha	
			soni	foiz		
<b>2018-yil</b>	5 162	2 750	2 412	46,7	23,5	-18,1
<b>2019-yil</b>	67 581	42 356	25 225	37,3	175,8	-152,3
<b>2020-yil</b>	58 856	41 405	17 451	29,6	148,1	-65,2
<b>2021-yil</b>	69 353	45 846	23 507	33,8	121,4	-135,3
<b>2022-yil</b>	77 123	48 086	29 037	37,6	279,50	-287,4

Jadval ma’lumotidan ko‘rishimiz mumkinki, 5 yildan beri mol-mulk ma’lumotnomasi taqdim etsa-da, lekin hisobot taqdim etmagan korxonalar soni kamaymasdan kelmoqda. 2022-yilda hisobot taqdim etish majburiyatiga ega korxonalar soni 77 123 tani tashkil qilgan, shundan 48 086 ta korxonalar soliq hisobotlarini 2023-yilning 1-martiga qadar taqdim etgan va 29 037 ta korxonalar soliq hisobotlarini taqdim etmagan. Bu esa taqdim etish majburiyatiga ega korxonalarining 37,6 foizini tashkil qiladi.

Jadval ma’lumotidan ko‘rishimiz mumkinki, hisobot taqdim etish majburiyatiga ega korxonalar soni 77 123 tani tashkil qilgan, shundan 48 086 ta korxonalar soliq hisobotlarini 2023-yilning 1-martiga qadar taqdim etgan va 29 037 ta korxonalar soliq hisobotlarini taqdim etmagan. Bu esa taqdim etish majburiyatiga ega korxonalarining 37,6 foizini tashkil qiladi. Mol-mulk va yer soliqlarining to‘lov

<sup>9</sup> Soliq qo‘mitasi ma’lumoti asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

muddatlari 2023-yil 1-yanvarga qadar har chorak uchinchi va birinchi oyining 10-kunigacha bo'lgan bo'lsa, endilikda uchinchi oyining 20-sanasidan kechiktirmay to'lanishi belgilanishi natijasida mol-mulk va yer soliqlarining to'lov muddati bixillashirildi.

Fikrimizcha, mol-mulk va yer soliqlarini to'lov muddatlarining bixillashishi bilan hisoblab chiqarish tartibini va soliq hisobotlarini birlashtirish, hisob-kitoblarni avtomatlashtirish orqali ko'chmas mulk solig'ini joriy etish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. O'rganishlardan ma'lum bo'lishicha, Respublika bo'yicha 875,3 mingta aholining 1948,8 mingta bir nechta obyekti borligi ma'lum bo'ldi.

Quyidagi jadvalga e'tibor qaratamiz (4-jadval):

#### 4-jadval

### Respublika bo'yicha ikki va undan ortiq turar joy obyektlari mavjud jismoniy shaxslarga hisoblangan mol-mulk solig'i to'g'risida MA'LUMOT<sup>10</sup>

*mlrd.so'mda*

Hudud nomi	Fuqaro soni	obyekt soni	Kadastr qiymat	mulk maydoni (gektar)	Hisoblangan mol-mulk solig'i summasi		
					2020-yil	2021-yil	2022-yil
<b>Respublika jami</b>	<b>875 372</b>	<b>1 944 888</b>	<b>117 488,8</b>	<b>20 755,0</b>	<b>255,2</b>	<b>278,6</b>	<b>306,4</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	33 697	75 151	2 929,1	1 044,4	8,0	8,2	9,0
Andijon viloyati	82 997	181 993	8 329,4	1 813,5	20,1	20,9	23,0
Buxoro viloyati	67 973	142 053	8 025,1	1 476,0	17,1	17,5	19,3
Jizzax viloyati	27 741	55 685	2 821,9	730,8	6,8	7,0	7,7
Qashqadaryo viloyati	86 327	178 817	8 345,1	1 747,2	18,2	19,3	21,3
Navoiy viloyati	33 443	71 223	3 687,9	805,7	7,9	8,4	9,2
Namangan viloyati	47 317	99 905	4 835,2	840,3	11,5	12,0	13,2
Samarqand viloyati	96 433	211 774	13 460,2	3 358,6	33,7	34,3	37,8
Surxondaryo viloyati	60 364	127 979	5 127,0	1 124,5	11,5	12,0	13,2
Sirdaryo viloyati	23 024	50 131	2 310,6	426,8	4,7	5,0	5,5
Toshkent viloyati	88 265	196 942	12 178,6	1 743,2	26,3	27,9	30,7
Farg'ona viloyati	96 185	218 876	10 809,4	2 005,8	23,8	24,6	27
Xorazm viloyati	32 571	74 406	3 554,5	1 226,3	8,9	9,8	10,8
Toshkent shahar	99 035	259 953	31 074,7	2 411,8	70,8	71,6	78,7

<sup>10</sup> Soliq qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, 1 944 888 ta obyektning kadastr qiymati 117 488,8 mlrd.so'mni, mulk maydoni 20 755 gektarni tashkil qilmoqda. Hisoblangan mol-mulk solig'i 2020-yilda 255,2 mlrd.so'mni, 2021-yilda 278,6 mlrd.so'mni, 2022-yilda 306,4 mlrd.so'm bo'lgan. Uch yil davomida mazkur ko'chmas mulk obyektlariga hisoblangan mol-mulk solig'i o'rtacha 25,0 mlrd.so'mga oshgan. O'rtacha hisobda bitta obyekt uchun kadastr qiymati 60,5 mln.so'mni tashkil qilmoqda.

Fikrimizcha, ushbu qiymat bozor bahosidan ancha past bo'lganligi sababli bozor qiymatiga o'tgunga qadar ikki va undan ortiq turar joy obyektlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga 3 karra soliq hisoblash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sababi, jismoniy shaxslar ikki va undan ortiq turar joy obyektlariga ega bo'lishi uning o'z ehtiyojidan tashqari mulki borligidan va ushbu mulkdan daromad olishi mumkin.

Respublika bo'yicha eng ko'p ikki va undan ortiq turar-joy obyektlari mavjud jismoniy shaxslar Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda. Toshkent shahrida 99 035 ta fuqaroning 259 953 ta obyektiga 78,7 mlrd.so'm mol-mulk solig'i hisoblangan. Ko'chmas mulk obyektlarining ijarasi va savdosi eng ko'p e'lon beriladigan olx.uz saytida 2023-yil 1-avgust holatida Respublika bo'yicha 246 852 ta turar joy, jumladan turar joylarni uzoq muddatga ijaraga berish savdosi 125 812 tani shundan, Toshkent shahrida esa 129 253 ta turar joy jumladan 23 602 ta turar joylarni uzoq muddatga ijaraga berish savdosi joylashtirilgan. Bundan tashqari, ko'chmas mulk obyektlarining savdosi boshqa ijtimoiy tarmoqlarda ham joylashtirilib borilishidan kelib chiqib, fuqarolarda o'z ehtiyojidan tashqari mulklaridan daromad olayotganligini ko'rishimiz mumkin.


O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash uchun olinadigan ko'chmas mulk obyektlarining joriy kadastr qiymati bozor qiymatidan ancha past. Aslida, bu 1991-yildagi obyektlarini qurish vaqtida materiallar qiymati, amortizatsiya koeffitsiyenti va tuzatish koeffitsiyentlariga ko'paytiriladi. Joriy kadastr qiymatini hisoblashda uyning joylashishi, infratuzilmaning mavjudligi, ko'kalamzorlashtirish, obyekt sinfi va boshqa ko'pgina bozor ko'rsatkichlari hisobga olinmaydi.

Joriy baholash mexanizmiga ko'ra, markazda yoki metro yaqinida va shahar chekkasida bir yilda qurilgan bir xonali uyning teng maydoni xarajati bir xil. Aslida, ko'chmas mulk bozorida xonadonlar narxi ularning joylashishiga qarab katta farq qiladi.

Masalan, Toshkent shahri markazida joylashgan ko'chmas mulk obyektlarining joriy kadastr qiymatining haqiqiy bozor narxi 4 baravargacha, shahar chekkasida esa 2 baravargacha qimmat.

Olib borilayotgan islohotlar natijasida, 2018-yilda jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulk obyektlarini ularning kadastr qiymatidan kelib chiqqan holda (2018-yildan boshlab inventarizatsiya qiymatidan voz kechildi) soliqqa tortish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar ko'chmas mulk obyektlarining soliq bazasini 6,3 barobar oshirish imkonini berdi (kadastr qiymati joriy etilgan taqdirda


ham jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi kamaytirildi) (4-rasm).



#### 4-rasm. Jismoniy shaxslarning turar-joy koʻchmas mulk obyektlarining qiymati toʻgʻrisida maʼlumot<sup>11</sup>

Rasm maʼlumotidan, 2018-yilda yilda turar-joy koʻchmas mulk obyektlarining kadastr qiymati 293 542 mlrd.soʻmni, 2022-yilda 612 540 mlrd.soʻmni yoki 2018-yilga nisbatan 2 baravar koʻpayganligini koʻrishimiz mumkin.

Shu bilan birga, Toshkent shahrida turar-joy koʻchmas mulk obyektlarining kadastr qiymatining baholanishi boʻyicha koʻrib chiqamiz (5-rasm).



#### 5-rasm. Toshkent shahrida jismoniy shaxslarning turar-joy koʻchmas mulk obyektlari qiymatining boʻlinishi (foizda) toʻgʻrisida maʼlumot<sup>12</sup>

Toshkent shahrida 50 foizga yaqin obyektlarning kadastr qiymati 50-100 mln.soʻm atrofida, 50 mln.soʻmgacha boʻlgan kadastr qiymatli koʻchmas mulklar 23 foizni va 100 mln.soʻmdan yuqori boʻlgan koʻchmas mulk obyektlar qiymati 30 foizni tashkil qiladi.

Biroq, joriy kadastr qiymati obyektning haqiqiy qiymatiga mos kelmaydi va ijtimoiy nuqtayi nazardan adolatsizdir. Bozor qiymati esa yuqoridagi barcha

